



“Involta” Ilmiy Jurnali

Vebsayt: <https://involta.uz/>

INGLIZ VA UZBEK TILLARIDA LOGISTIKAGA OID TERMINLARNING SOTSIOLINGVISTIK TADQIQI

Xolxodjaeva Dilfuza Shoakrom qizi

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasi o'qituvchisi
Gmail pochta: dlfuzashoakramovna6366@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada logistikaga oid terminlarning til sohasini alohida sistema sifatida o'rganish zarurligi asoslangan, shuningdek shu sohadagi terminlarning ingliz va o'zbek tillardagi o'zaro bog'liqliklarini hamda iqtisodiy sohada tushunchanligini lingvisik xususiyatlariga bog'liq masalalar muhokama qilingan. Ushbu terminlarning nazariy o'rganishlar orqali bog'liqlarini sohalar kesimida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: logistika, til sohasi, ingliz va o'zbek tillar, terminlar, iqtisodiy, lingvisik xususiyatlari, tahlil.

Kirish

Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha "Harakatlar Strategiyasi"ning iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishariga bag'ishlangan bandida "Tarkibiy

o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizasiya va difersifikasiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish, erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarni tashkil etish, amaldagi zonalarning samaradorligini oshirish, klasterlar faoliyatini tashkil etish, xizmatlar ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlar roli va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlarning tuzilmasini eng avvalo xizmatlarning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish, logistika va yo‘l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy sohaga, boshqarish tizimiga raqamlashtirish usullarini joriy etish,qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni saqlash, transportirovka qilish va sotish, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlarni ko‘rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish” kabi vazifalar keltirilgan.

O‘zbekistonda oxirgi yillarda logistikani, klasterlarni, innovation faoliyatni, raqamlashtirishni shiddat bilan rivojlantirish masalalari davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoldi. Bu esa o‘z o‘rnida raqamlashtirish mamlakatimiz iqtisodiyoti raqobatbardoshligini rivojlantirish, inson taraqqiyoti darajasini oshirish, yoshlarni ish bilan bandligini taminlash,mehnat unumdonorligini o‘stirishdagi hissasi to‘g‘risida xulosa chiqarish uchun O‘zbekistonning raqamli rivojlanishi bo‘yicha to‘la miqyosli uzoq muddatga ega bo‘lgan strategiyali davlat innovation siyosatini rivojlantirishni va iqtisodiyotimizni raqamlashtirishni taqozo etmoqda.¹

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Chet tillarni o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2012 yil 10 dekabrdagi PQ-1875-sonli qarori ingliz tilini mukammal biladigan va ushbu tilda erkin muloqot qila oladigan mutaxassis kadrlar tayyorlashga qaratilgan.

Ilm, fan-texnika taraqqiyoti hozirgi kunda jadal rivojlanib borar ekan, jamiki insonlarni turli xil sohalardan xabardor bo‘lishga undab qolmasdan, tilshunoslikning leksik qatlarni boyitadi, shu bilan birga insonlar nutqida qo’llanilayotgan qator

¹ D.M. Umarov. M.A. Bo‘ronov. “Logistika”. Cho’lpon-2016.

lisoniy birliklarni jamlab tobora kengaytiradi, kundalik hayotga hamohang bo'lishini talab etadi.

Tilshunoslik yoki lingvistika tillarni o'rganuvchi fan hisoblanadi Tilshunoslik, lingvistika - til haqidagi, uning ijtimoiy tabiat, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi, muayyan tillarning amal qilish (faoliyat) qonunlari, tarixiy taraqqiyoti haqidagi fan. Maqsadi, vazifasi va shu kabiga ko'ra, tilshunoslikning bir necha yo'nalishlari (sohalari) bor: umumiyl Tilshunoslik - tilni umuman insonga xos hodisa sifatida o'rganuvchi, asosiy vazifasi dunyo tillariga xos eng umumiyl belgi xususiyatlarni aniqlash va yoritish bo'lgan sohadir.

Tilshunoslikning eng dolzarb, murakkab, nazariy va amaliy ahamiyatga ega yo'nalishlaridan bo'lган terminologiyaning rivojlanishi, shakllanishi, albatta, o'ziga xos qonuniyatlar asosida paydo bo'ladi, umumxalq tilining leksikasi negizida rivojlanadi hamda boyishi uchun xizmat qiladi.

Mustaqillikga erishganimizdan keying dastlabki kunlaridan O'zbekiston tilshunoslari zimmasiga soha doirasidan kelib chiqib har bir kasbga oid til birliklarini o'rganish va soha atamalarini tizimlashtirish, shuning uchun maxsus soha lug'atlarini tuzish bo'yicha bir qator vazifalar yuklatildi. Shundan kelib chiqib logistika terminologiya mamlakatimizda ham shakllanib boshladi va bosqichma-bosqich rivojlanishi kuzatili kelmoqda. Bugungi kunda ingliz va o'zbek tillar logistika terminologiyasini o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaymoqda.

Chunki mamlakatdagi iqtisodiy soholarda biri bo'lgan logistika ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Logistika sohasi orqali mamlakatning yalpi ichki mahsulotning katta ulushi yaratilgani uchun sohadagi zaruriy terminlar ingliz tilidan o'zbek tiliga leksik manosini o'zgartirmasdan o'zlashtirilyapdi. Shu bilan birga soha doirasida iqtisodiy-siyosiy, tashqi munosabatlarda logistik terminlar til birliklari muammosi o'ziga xos murakkab va ko'p qirrali muammolardan biri sanaladi. Ushbu muammo umumiyl tilshunoslik masalalarining turli jihatlari bilan bog'liq, ya'ni, tilning tuzilishi, funksional harakatchanlik, adabiy normaning o'ziga xosligi va o'zgaruvchanligi, adabiy til normasi va logistik so'zlashuv tilining bir-biriga

muvofiqligi va o'zaro munosabati, ularga xos leksik birliklar evolyutsiyasi hamda uning lingvistik nuqtai nazardan istiqboli kabilar shular jumlasidandir.

Tadqiqotning tahlili va metodologiyasi

Ingliz va o'zbek tillarida logistikaga oid terminlarning leksik manosi, ularning nuqtda qo'llanishi qulayligi muhim hisoblanadi. Chunki logistka sohasining tashqi faoliyatidan kelib chiqib o'zaro mano jihatida yaqin bo'lishi zarurdir. Ulardan quyidagilarni keltirib o'tamiz:²

EXW – joy nomi (ingliz tilidan. ex works – zavoddan)

Sotuvchi yukni haridorga topshiradi. Haridor esa yukni ortish, tashish bilan bog'liq harajat va javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Shuningdek yukni bojxonada rasmiylashtirish jarayonlarini bajaradi.

FAS – yukni tushurish porti nomi (ingliz tilidan. free alongside ship – kema borti bo'ylab erkin)

Sotuvchi yukni kema sirti bo'ylab sohilda yoki yuk ortish joyida lixtiyorga joylashi kerak. Ayni su paytdan e'tiboran yukning yo'qolishi yoki bo'lishi ehtimoli va kutilmagan xolatlar uchun haridor javobgar bo'ladi. Yukni sotuvchi shuningdek (zaruriyar bo'lsa) o'z hisobidan eksport litsenziyasini olishi kerak bo'ladi va yukni chegaradan olib o'tish uchun bojxonada rasmiylashtirish ishlarini bajaradi.

FOB – yukni tushurish porti nomi (ingliz tilidan. free on board – kema sathida erkin).

Sotuvchining majburiyatları yukni kema sathidan yuk tushurish portiga o'tgandan so'ng yakunlanadi va to'liq bajarilgan hisoblanadi. Yukni sotuvchi shuningdek (zaruriyar bo'lsa) o'z xisobidan eksport litsenziyasini olishi kerak bo'ladi va yukni chegaradan olib o'tish uchun bojxonada rasmiylashtirish islarini bajaradi.

FOR – yukni tushurish bekati nomi (ingliz tilidan. free on rail – temir yo'llarida erkin)

Sotuvchining majburiyatları yuk yuk tushurish bekatida yukni temir yul

² D.M. Umarov. M.A. Bo'ronov. "Logistika". Cho'lpon-2016.

vagonlariga ortilganidan so'ng yakunlanadi va to'liq bajarilgan hisoblanadi. Yukni sotuvchi shuningdek (zaruriyar bo'lsa) o'z hisobidan eksport litsenziyasini olishi kerak bo'ladi va yukni chegaradan olib o'tish uchun bojxonada rasmiylashtirish ishlarini bajaradi. FOR yukni manzil bekatiga yetkazish bilan yukni sotuvchi o'z zimmasidagi majbutiyatni bajargan hisoblanadi. Bundan keyingi bosqichlar ya'ni yukni tushurish, bekatdagi to'lov va transpot xujjalarni rasmiylashtirish, shuningdek bojxona nazorat jarayonlari yukni oluvchi tomonidan bajariladi.

FOT – yuk tushurish joyi nomi (ingliz tilidan. free on truck – Yuk mashinasida erkin)

Yuk sotuvchining majburiyatları yukni tushurish joyida yuk mashinalariga ortirilgandan keyin bajarilgan hisoblanadi.

Yukni sotuvchi shuningdek (zaruriyar bo'lsa) o'z hisobidan eksport litsenziyasini olishi kerak bo'ladi va yukni chegaradan olib o'tish uchun bojxonada rasmiylashtirish ishlarini bajaradi. FOT yukni manzil bekatiga yetkazish bilan yukni sotuvchi o'z zimmasidgi majbutiyatni bajargan hisoblanadi. Bundan keyingi bosqichlar ya'ni yukni tushurish, bekatdagi to'lov va transpot hujjalarni rasmiylashtirish, shuningdek bojxona nazorat jarayonlari yukni oluvchi tomonidan bajariladi.

CIP – Manzil (joyi)nomi (ingliz tilidan. carriage and insurance paid to – yuk tashish va sug'urta xarajatlari ...gacha to'langan)

Sotuvchi CPT majburiyatları kabi majburiyatlarini o' zimmasiga oladi, lekin bundan tashqari yukni tashish davomida yukni nobud bo'lishi va zarar ko'rishidan sug'urta qilishi kerak.

DAF – yetkazib berish joyi nomi (ingliz tilidan. delivered at frontier – chegaragacha yetkazib berish)

Sotuvchi o'z majburiyatlaridan bojxonadagi hamma jarayonlardan o'tgan yuk chegaradagi ko'rsatilgan joyga yetib borganda ozod bo'ladi. Yukni chegaradan olib o'tish uchun litsenziyani rasmiylashtirish haridor zimmasiga yuklanadi.

DAF – yetkazib berish joyi nomi (ingliz tilidan. delivered at frontier – chegaragacha yetkazib berish)

Sotuvchi yukning ko'rsatilgan manzilga yetkazish fraxti harajatlarini o'z zimmasiga oladi Lekin yukning nobud bo'lish yoki shikastlanish havfi yuk dastlabki yuk tashivchi ga topshirilganda haridor zimmaziga o'tadi. "Eksport soliqlarini sotuvchi, import soliqlarini xaridor to'laydi

DES – Manzil port nomi (ingliz tilidan. delivered ex ship - bevosita kemandan yukni yetkazib berish)

Sotuvchi bojxonada rasmiylashtirish jarayonidan o'tmagan yukni kema sathiga .haridor ga yetkazib beradi .Ayni shu paytdan e'tiboran hamma xarajatlar shuningdek import soliqlari haridor zimmasiga yuklanadi.

Logistik zanjir — tashishga, ortishga, tushirishga, qayta ortishga, yuklarni manipulyatsiya qilishga;

- transport - ombor ishlarining hamma turlari bo'yisha taxlash;
- axborot xizmatini ko'rsatish, ya'ni axborot oqimlarini tashkil etish;
- aylanma mablag'larni tutib turishga va omborlarda yuklarni saqlab turish natijasida qilinayotgan tavakkalchilik;
- logistik boshqarishga.³

Xulosa

Logistika sanoatining taraqqiyoti tarjima va madaniyatlararo muloqot bilan uzviy bog'liq. Logistikaning o'ziga xos xususiyati - bir qator sanoatyo'nalishlariningning birlashishi: mehmonxona sanoati, restoran biznesi, kredit va moliya tashkilotlari hamda ko'ngilochar sohalar shular jumlasidandir. Logistika sektori – jahon iqtisodiyotining uchinchi eng foydali sektori hisoblanadi.

Sohaviy terminologiya, uni chet tillarda o'qitish, turli tillardagi qiyosiy tatbiqi hamda mutaxassis tilini rivojlantirish tendentsiyalarini o'rganishga bo'lган ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Terminlarni tarjima qilish texnikasi, ingliz tilidani logistika sohasiga oid terminlarining semantik xususiyatlari, logistika sohasiga oid

³ <https://fayllar.org/toshkent-farmatsevtika-instituti-farmatsevtika-ishini-tashkil-v2.html?page=5>

terminologiyani tadqiq qilish, tasniflash hamda tarjima muammolari, turistik leksikada sinonimlar, omonimlar, antonimlar qatorini o'rganish, turli tillarda logistika sohasiga oid terminologyaning tipologik tasnifini qiyoslash, lingvistik tahlil va tarjima muammolarini o'qitish, affiks, prefikslar yordamida logistika sohasiga oid terminlarni yasash va ulardan amaliyotda foydalanish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Terminologiya yo'nalishiga oid faoliyat natijalarini kundan-kunga keng qo'llash terminologik sohaning keyingi yo'nalishlarini ochadi, yangi maqsad va vazifalarni belgilashga imkon beradi

Sotsiolingvistika (lot societas - jamiyat va lingvistika) tilshunoslik, sotsiologiya (jamiyatshunoslik), ijtimoiy psixologiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiatni, uning ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy omillarning tilga ta'sir ko'rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o'rni bilan bog'liq ko'plab muammolar majmuini o'rganuvchi ilmiy nazariy sohadir. Ushbu muammolarning ayrimlari (mas, "til va jamiyat") umumiy tilshunoslik doirasida ham o'rganiladi. Sotsiolinhivistikaning fanlararo maqomi u foydalanadigan tushunchalar majmuida namoyon bo'ladi. Chunonchi, sotsiolingvistik tahlilning asosiy tushunchasi deb qaraladigan til jamoasi ham ijtimoiy, ham lisoniy belgilar asosida aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi PF-4749 sonli "Xarakatlar Strategiyasi" matnidan.
2. Q.Dadaboyev. Logistika. "Iqtisod-Moliya" 2007.
3. D.M. Umarov. M.A. Bo'ronov. "Logistika". Cho'lpon-2016.
4. <https://uz.opentran.net/ingliz-ozbek-tarjima/logistics.html>
5. <https://fayllar.org/toshkent-farmatsevtika-instituti-farmatsevtika-ishini-tashkil-v2.html?page=5>